



Sh.A. Abdiyev

2024-yil

## Statistik registrlarni yuritish bo'limi to'g'risida NIZOM

### 1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom Samarqand viloyati Statistika boshqarmasi Statistik registrlarni yuritish bo'limi (keyingi o'rnlarda – Bo'lim) maqomi, asosiy vazifalari va funksiyalari, huquq va majburiyatlar, shuningdek uning faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Bo'lim O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-martdagи "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-114-sон qaroriga muvofiq tashkil etilgan va viloyat Statistika boshqarmasining (keyingi o'rnlarda – bo'lim) tarkibiy bo'linmasi hisoblanadi.

3. Bo'lim o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining "Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonuni va boshqa qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon, qaror va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi to'g'risidagi Nizomga, viloyat Statistika boshqarmasi Nizomiga hamda mazkur Nizom, shuningdek boshqa qonunchilik hujjatlariga amal qiladi.

4. Bo'lim statistik registrlarni yuritish masalalari bo'yicha faoliyatini Statistika boshqarmasining tarkibiy bo'linmalari, tumanlar va shaharlar statistika bo'limlari (keyingi o'rnlarda – statistika organlari), davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari va boshqa organlar bilan o'zaro hamkorlikda amalga oshiradi.

5. Bo'lim o'z faoliyatini Statistika boshqarmasi boshlig'i rahbarligida amalga oshiradi.

Bo'lim o'z vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha Statistika boshqarmasining o'rnbosari rahbarligida amalga oshiradi.

### 2-bob. Bo'limning vazifalari va funksiyalari

6. Quyidagilar Bo'limning asosiy vazifalari hisoblanadi:

a) rasmiy statistika sohasida davlat siyosatini amalga oshirish, rasmiy statistikani rivojlantirish masalalari bo'yicha faoliyatni milliy statistika tizimi doirasida muvofiqlashtirish, statistika uslubiyotlari va xalqaro tavsiyalarga muvofiq bo'lgan statistika kuzatuvlari shakllarini ishlab chiqish, tasdiqlash va amaliyotga joriy qilish sohasida:

ko‘p yillik va bir yillik statistika dasturlari, Statistika agentligining ish rejalar, boshqarma ish rejas, Bo‘lim vakolatiga kiruvchi masalalar bo‘yicha me’yoriy-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqishda ishtirok etadi va ijrosini ta’minlaydi;

rasmiy statistikadan foydalanuvchilarning ehtiyojlarini o‘rgangan holda uzoq muddatli maqsadlar va yo‘nalishlar bo‘yicha statistik ko‘rsatkichlarni joriy etib boradi;

statistika dasturining statistik registrlarni yuritish sohasiga oid qismi bo‘yicha takliflar ishlab chiqadi va taqdim etadi;

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrini (keyingi o‘rnarda – KTYADR) rivojlantirishining uslubiy asoslari va yo‘nalishlarini ishlab chiqish, undagi ma’lumotlarni aktual darajada saqlashni tashkil qiladi;

yuridik shaxslarni hisobga qo‘yish va ro‘yxatdan o‘tkazilgan yuridik shaxslar to‘g‘risidagi ma’lumotlarga o‘zgartirishlar kiritish bo‘yicha ishlarga uslubiy rahbarlik qiladi va ularni muvofiqlashtiradi;

statistika registrlarini yuritish sohasida milliy statistika tizimiga statistika faoliyatini tashkil etishning xalqaro darajada tavsiya etilgan ilg‘or uslubiyotlari va tavsiyalarini joriy etish yuzasidan zarur choralarini ko‘radi;

rasmiy statistika sohasidagi ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish hamda xalqaro tavsiyalar asosida ishlab chiqiladigan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalariga Bo‘lim vakolati doirasidagi takliflar ishlab chiqishda ishtirok etadi.

b) foydalanuvchilar ehtiyojlarini qanoatlantirishga qaratilgan iqtisodiy, demografik, ijtimoiy, moliyaviy, ekologik hamda boshqa xususiyatga ega dolzarb statistika ma’lumotlarini yig‘ish, ularni qayta ishlash, umumlashtirish, tahlil qilish, tarqatish va saqlash jarayonlarini tashkil etish sohasida:

KTYADR va statistik registrlarning raqamli bazasi axborot tizimlarini yuritadi, shuningdek, ushbu axborot tizimlarini texnik qo‘llab-quvvatlash, ularning funksional imkoniyatlarini takomillashtirish, uzlusiz ishlashini ta’minalash hamda idoraviy axborot tizimlari va resurslari bilan integratsiya qilish bo‘yicha ishlarni Statistika boshqarmasi tegishli tarkibiy bo‘linmalari bilan birgalikda tashkil etadi;

statistik registrlarni raqamli bazasini yaratish, joriy etish va kelgusida uni qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, raqamli statistik registrlar sohasida yagona uslubiyatni ishlab chiqishda ishtirok etadi;

raqamli statistik registrlar bazasida aks ettiriladigan ma’lumotlar hamda ularni taqdim etishga mas’ul davlat organlari va tashkilotlari, shuningdek, Statistika boshqarmasining tegishli tarkibiy bo‘linmalari o‘rtasidagi munosabatlarni muvofiqlashtirishda qatnashadi;

ommaviy axborot vositalarida joylashtirish uchun KTYADR sohasida yuz berayotgan o‘zgarishlarni ifodalovchi tahliliy ma’lumotlar, diagrammalar, grafiklar va press-relizlar tayyorlaydi;

korxona va tashkilotlarning demografik ko‘rsatkichlarining statistik hisob-kitoblarini amalga oshiradi hamda mamlakatdagi eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy hodisalar va jarayonlarning dastlabki statistik tahlilini olib boradi;

iqtisodiy-statistik tasniflar tizimini ishlab chiqish, joriy etish va yuritishda ishtirok etadi;

Statistika boshqarmasining tarkibiy bo‘linmalarini statistik kuzatuv obyektlari

haqidagi ma'lumotlar bilan ta'minlaydi;

raqamli statistik registrlarning zaxira nusxalarini saqlash, axborot xavfsizligi va statistik ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlaydi.

d) xalqaro darajada umumqabul qilingan rasmiy statistikaning asosiy prinsiplari asosida sifatli va ishonchli statistika ma'lumotlarini shakllantirish, ularning shaffofligi va oshkoraligni oshirishga qaratilgan ta'sirchan mexanizmlarni amaliyotda qo'llash sohasida:

rasmiy statistika ma'lumotlari rasmiy statistikaning asosiy prinsiplariga rioya etgan holda tayyorlanishi va tarqatilishini tashkil etadi;

sifatli va ishonchli statistika ma'lumotlarini shakllantirish, ularning shaffofligi va oshkoraligni ta'minlash bo'yicha ilg'or xorijiy tajribalarni o'rghanadi va ularni rasmiy statistika sohasiga joriy etish choralarini ko'radi;

rasmiy statistika uchun zarur bo'lgan statistik tasniflagichlarni ishlab chiqish va xalqaro standart tasniflagichlar asosida ularning muntazam ravishda qayta ko'rib chiqilishida ishtirok etadi;

kxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi ochiq statistika ma'lumotlarini statistika organlari, rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilari, boshqa davlat organlari va xalqaro tashkilotlarning internet resurslari hamda nashrlarida joylashtirish yo'li bilan tarqatadi va barcha foydalanuvchilarga rasmiy statistika ma'lumotlaridan keng foydalanish uchun teng imkoniyatlarni yaratadi;

xalqaro tajribaga asoslangan KTYADR va raqamli statistik registrlarni standartlashtirish va muvofiqlashtirishda ishtirok etadi;

ma'muriy ma'lumotlardan foydalanish asosida raqamli statistik registrlarni shakllantirish va yuritishda ushbu ko'rsatkichlarni aniqligini va ishonchliligin oshirish choralarini ko'radi;

yagona xalqaro va umumdavlat tasniflagichlar asosida statistik birliklarning hisobini yuritish va ularni identifikatsiyalashni ta'minlaydi;

e) statistika ma'lumotlarini tayyorlash jarayonlarida raqamli texnologiyalardan keng foydalanish, o'z axborot tizimlarini rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilari va ma'muriy ma'lumotlarni yetkazib beruvchilarning axborot tizimlari bilan o'zaro integratsiyasini ta'minlash sohasida:

yagona tasniflash tizimi asosida yuridik shaxslarni hisobga olish va identifikatsiyalashni, KTYADRni samarali faoliyat ko'rsatishini hamda yangilab borilishini ta'minlaydi;

statistikani ishlab chiqishning to'liq siklini raqamlashtirish va batafsilroq statistik ma'lumotlarni ishlab chiqish maqsadida jismoniy va yuridik shaxslar to'g'risidagi registrlarni va ma'lumotlar bazalarini yaratadigan hamda yuritadigan davlat organlari va ularning tasarrufidagi tashkilotlarning axborot tizimlari bilan raqamli statistik registrlar axborot tizimini o'zaro integratsiyasini yo'lga qo'yishda ishtirok etadi;

rasmiy statistikadan foydalanuvchilarga real vaqt rejimida kxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi ko'rsatkichlarning kengaytirilgan ro'yxatidan erkin foydalanishni ta'minlaydi;

katta hajmdagi ma'lumotlarni yaratishda ma'lumotlarni oson qidirish va tahlil qilish imkoniyatini joriy qilishda hamda ko'rsatilayotgan interaktiv xizmatlar tarkibini

kengaytirish va sifatini yaxshilashni ta'minlashda ishtirok etadi;

o'zaro mos axborot tizimlari va resurslarini yaratish uchun asos sifatida statistik tasniflagichlardan foydalanishni ta'minlaydi.

f) milliy statistika tizimidagi kadrlar salohiyatini oshirish va statistik tadqiqotlarni rivojlantrish borasida faol siyosatni yuritish sohasida:

statistika organlari faoliyatini moddiy-texnik jihatdan ta'minlash, xodimlarning samarali mehnat qilishlari, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy muhofaza qilish uchun munosib shart-sharoitlarni yaratish choralarini ko'radi;

Bo'lim xodimlarida yuksak kasbiy odob-axloqni, korrupsiyaga qarshi turish madaniyatini va unga toqat qilib bo'lmaydigan munosabatni shakllantirish bo'yicha ta'sirchan choralarini ko'radi;

xalqaro tavsiyalar va ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganib borish maqsadida statistikaga doir turli xalqaro tadbirlar, seminar, treninglar va boshqa tadbirlarda Bo'lim xodimlarining ishtirokini ta'minlaydi.

7. Bo'lim o'z zimmasiga yuklangan vazifalarni bajarish uchun quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

Statistika dasturi, Statistika agentligining ish rejalarini, boshqarma ish rejasini, Bo'lim vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha me'yoriy-huquqiy hujjatlar loyihamonini ishlab chiqishda ishtirok etadi va ijrosini ta'minlaydi;

rasmiy statistika sohasida qonun hujjatlarini yanada takomillashtirish va hujjat loyihamonini belgilangan tartibda tegishli organlarga kiritish bo'yicha takliflarni tayyorlashda ishtirok etadi;

Bo'limning ish usullarini yanada takomillashtirish, fuqarolar murojaatlarini o'z vaqtida ko'rib chiqish va munosabat bildirish, xodimlarning yuklatilgan vazifalarni o'z vaqtida va sifatli bajarilishi uchun mas'uliyatlarini oshiradi;

KTYADRni aktuallashtirish va tasarruf etish, KTYADRdag'i korxonalar va tashkilotlar ma'lumotlarini kiritishda yuzaga kelgan xatolarni bartaraf etish bo'yicha ko'rsatmalar tayyorlaydi;

KTYADR sohasiga oid statistik ma'lumotlar va rasmiy statistik ma'lumotlarni tarqatish bo'yicha tashkil etiladigan axborot-tushuntirish ishlarida ishtirok etadi;

korxonalar va tashkilotlar haqida belgilangan tartibda to'liq va aniq ma'lumotlar bilan davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari hamda boshqa foydalanuvchilarni ta'minlaydi;

KTYADR ma'lumotlar bazasining arxiv nuxalarini saqlash maqsadida, Statistika boshqarmasining tegishli tarkibiy bo'linmasiga uning so'roviga asosan taqdim etadi;

davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organlar, soliq organlari va boshqa organlar bilan o'zaro hamkorlik qiladi;

ro'yxatdan o'tkazuvchi organlardan kelib tushadigan KTYADR ma'lumotlari bilan ishlashni amalga oshiradi;

korxona va tashkilotning umumdavlat tasnifi (KTUT) kodlarini biriktirilishi va uni takrorlanishini nazorat qiladi;

davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari tarkibiga kiruvchi tuzilmalar bo'yicha

solishtirish ishlarini amalga oshiradi;

KTYADR foydalanuvchilariga axborot-ma'lumotnomma xizmatini ko'rsatadi;

ma'muriy ma'lumotlarni yetkazib beruvchilardan olingen ma'lumotlarni to'plash va saqlash, shuningdek, ularni Statistika boshqarmasining tegishli tarkibiy bo'linmalari, davlat boshqaruvi organlari va boshqa foydalanuvchilarga belgilangan tartibda taqdim etadi;

jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari, shu jumladan, elektron shakldagi murojaatlarning tegishli qismini ko'rib chiqadi va ulardagি masalalarni hal qilish bo'yicha, zarur hollarda jismoniy va yuridik shaxslarning vakillari ishtirokida takliflar tayyorlaydi;

KTYADRdagi tasniflashtirish ko'rsatkichlarini statistika kuzatuvarlarini o'tkazish jarayonida olingen dastlabki statistika ma'lumotlari asosida o'z vaqtida o'zgartirishni amalga oshiradi;

raqamli statistik registrlar sohasiga oid maxfiy statistik ma'lumotlarni o'z ichiga olgan axborotlarni saqlash va himoyalashning tegishli tartibini ta'minlaydi;

hududiy statistika organlariga uslubiy hamda amaliy yordam ko'rsatadi;

Bo'lim tomonidan ishlab chiqiladigan statistik ko'rsatkichlarning ishonchliligi, xolisligi, tezkorligi, kompleksliligi va tizimliligini ta'minlaydi;

Bo'lim vakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha zamonaviy axborot-kommunakatsiya texnologiyalari asosida tizimlashtirilgan elektron ma'lumotlar bazasining yaratilishi ya yuritilishini, uning muntazam ravishda to'ldirilib va yangilanib borilishini ta'minlaydi;

Bo'lim o'ziga yuklangan boshqa funksiyalarni belgilangan tartibda amalga oshiradi.

### **3-bob. Bo'limning huquqlari va javobgarligi**

8. Bo'lim o'ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

ma'muriy ma'lumotlarni yetkazib beruvchilardan statistika registrlarini shakllantirish hamda o'z vaqtida yangilash uchun zarur bo'lган axborotlarni bepul olish;

Statistika boshqarmasi bo'linmalari va hududiy statistika organlaridan o'ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun zarur materiallar va ma'lumotlarni belgilangan tartibda so'rash va olish;

KTYADR va raqamli statistik registrlar sohasidagi ishlarni tashkil etish samaradorligini oshirish sohasida Statistika boshqarmasi rahbariyatiga takliflar kiritish;

KTYADR ma'lumotlar bazasining tuzilishi va dasturiy ta'minotiga o'zgartirishlar kiritish;

rasmiy statistika sohasida normativ-huquqiy bazani yanada rivojlantirish va takomillashtirish, KTYADR uslubiyati va uslubini ishlab chiqish bo'yicha ishlarni muvofiqlashtirish;

hududiy statistika organlari tomonidan KTYADR sohasida yagona siyosatni amalga oshirish ishlarini muvofiqlashtirish;

tarkibiy tuzilmalarni yuritish masalasi bo'yicha vazirlik va idoralar vakillari bilan birlgilikda ishlash;

foydalanuvchilarga belgilangan tartibda KTYADR va raqamli statistik registrlardagi ma'lumotlarni taqdim etish;

Boshqarma vakolatiga kiruvchi masalalar yuzasidan Statistika boshqarmasi bo'linmalari bilan yo'riqnomalar berish bo'yicha yig'ilishlarda qatnashish;

Bo'lim faoliyatiga tegishli masalalar bo'yicha konferensiyalar, seminarlar va yig'ilishlar, shu jumladan, xalqaro yig'ilishlar, shuningdek, xalqaro loyihalarda ishtirok etish.

9. Bo'lim quyidagilar uchun javobgar:

o'ziga yuklangan vazifalarni samarali va lozim darajada bajarish;

vakolatiga kiruychi tahliliy va boshqa materiallarni yuqori darajada tayyorlash;

KTYADRni qonun hujjatlariga muvofiq yuritilishini ta'minlash;

rasmiy statistikaning asosiy prinsiplariga amal qilish, ilg'or xalqaro amaliyotga muvofiq foydalanilayotgan usullarini doimiy ravishda takomillashtirish;

Bo'lim xodimlari tomonidan belgilangan normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq ijro intizomini ta'minlash.

#### 4-bob. Bo'limning tuzilmasi

10. Bo'limning tuzilmasi o'z ichiga Bo'lim boshlig'i, Bosh mutaxassis va etakchi muhandis-dasturchi kiradi.

11. Bo'limga Bo'lim boshlig'i rahbarlik qiladi.

12. Bo'lim boshlig'i va mutaxassislari Statistika boshqarmasi boshlig'i tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod qilinadi.

13. Statistik registrlarni yuritish bo'limi quyidagilarni amalga oshiradi:

hududiy statistika organlari, Statistika boshqarmasi bo'linmalari va manfaatdor foydalanuvchilarga statistik tasniflagichlarni o'zlashtirishda uslubiy amaliy yordam ko'rsatish;

KTYADR axborot resursida statistik tasniflagichlardan foydalanish borasida KTYADRni yuritish uslubiyatini takomillashtirish;

ommaviy axborot vositalarida joylashtirish uchun KTYADR sohasida yuz berayotgan o'zgarishlarni ifodalovchi tahliliy ma'lumotlar, diagrammalar, grafiklar va press-relizlar tayyorlash;

statistik registrlarini raqamli bazasini yaratish, joriy etish va kelgusida uni qo'llab-quvvatlash, shuningdek, raqamli statistik registrlar sohasida yagona uslubiyatni ishlab chiqishda ishtirok etish;

ma'muriy ma'lumotlarni yetkazib beruvchilardan olingan ma'lumotlarni to'plash va saqlash, shuningdek, ularni Statistika boshqarmasining tarkibiy bo'linmalariga belgilangan tartibda taqdim etish;

raqamli statistik registrlarni texnik qo'llab-quvvatlash, uning funksional imkoniyatlarini takomillashtirish, uzlusiz ishlashini ta'minlash hamda idoraviy axborot tizimlari va resurslari bilan integratsiya qilish bo'yicha ishlarni tashkil etishda ishtirok etish;

korxona va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha ma'lumotlarni shakllantirish; Bo'lim belgilangan tartibda o'ziga yuklatilgan boshqa funksiyalarni ham bajaradi.

### **5-bob. Bo'lim faoliyatini tashkil etish**

15. Bo'lim ishi O'zbekiston Respublikasining "Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonuni, ko'p yillik hamda bir yillik statistika dasturlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi to'g'risidagi hamda viloyat Statistika boshqarmasi Nizomlariga, mazkur Nizom, Statistika agentligi direktorining hamda Statistika boshqarmasi boshlig'i buyruqlari va topshiriqlariga muvofiq, shuningdek Statistika boshqarmasining ishlab chiqarish dasturi, ish rejali, Bo'limning ish rejali va Bo'lim xodimlarining funksional vazifalari asosida tashkil etiladi.

Bo'limning ish rejasi Statistika boshqarmasi boshlig'i tomonidan tasdiqlanadigan Statistika boshqarmasining ishlab chiqarish dasturi hamda ish rejali asosida shakllantiriladi va Statistika boshqarmasi boshlig'ining tegishli o'rribosari tomonidan tasdiqlanadi.

Xodimlarining funksional vazifalari Bo'lim boshlig'i tomonidan boshqarmaga yuklangan vazifalardan kelib chiqqan holda tayyorlanadi va Statistika boshqarmasi boshlig'ining tegishli o'rribosari tomonidan tasdiqlanadi.

### **2-bob. Bo'limning vazifaları va funksiyalari**

2-1. Bo'limning vazifalarini quyidagi surʼatlardan tanishadi:

a) Bo'limning vazifalarini quyidagi surʼatlardan tanishadi, xodimlarning shakllantirilishi, ishlashini ta'minlashni, statistika agentligi, viloyat Statistika boshqarmasi, Nizom, Statistika agentligi direktori, statustu, tizimi, dasturi, vazifalardan kelib chiqqan holda tayyorlanadi;